



# IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5 (3)**



**2026**

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.  
3-qism*

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Rustamov Ilkomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI .....	28
<b>Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li</b>	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA .....	34
<b>Abdovaxidov Farxod Tuychiyevich</b>	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	41
<b>Bobonarova Kamola</b>	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI .....	47
<b>Azizova Habiba Arslonovna</b>	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI .....	56
<b>Yusupova Dilbar Mirabidovna</b>	



# SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Azizova Habiba Arslonovna

Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktranti,  
Buxoro Innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyati samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Maqolada investitsion samaradorlik va innovatsion faoliyat tushunchalarining evolyutsiyasi, ularning turli ilmiy maktablar tomonidan talqin etilishi, sanoat korxonalariga moslashtirilgan nazariy modellar hamda samaradorlikni baholashning asosiy yondashuvlari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyati samaradorligini kompleks baholash uchun kengaytirilgan "5I" modeli — investitsiyalar (Investment), innovatsiyalar (Innovation), intellektual kapital (Intellectual capital), integratsion sinergiya (Integration) va institutsional muhit (Institutional environment) — nazariy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** sanoat korxonasi, investitsion-innovatsion faoliyat, samaradorlik, innovatsion sig'im, intellektual kapital, integratsion sinergiya, institutsional muhit, "5I" modeli, nazariy yondashuv, raqamli transformatsiya.

**Abstract.** This article examines the theoretical and methodological foundations for improving the efficiency of investment and innovation activities of industrial enterprises. The paper provides an in-depth analysis of the evolution of the concepts of investment efficiency and innovation activity, their interpretation by various scientific schools, theoretical models adapted to industrial enterprises, and the main approaches to evaluating efficiency. As a result of the study, an expanded "5I" model for the comprehensive assessment of the efficiency of investment and innovation activities of industrial enterprises is theoretically substantiated, including investments (Investment), innovations (Innovation), intellectual capital (Intellectual capital), integration synergy (Integration), and institutional environment (Institutional environment).

**Key words:** industrial enterprise, investment and innovation activity, efficiency, innovation capacity, intellectual capital, integration synergy, institutional environment, "5I" model, theoretical approach, digital transformation.

**Аннотация.** В данной статье исследованы теоретико-методологические основы повышения эффективности инвестиционно-инновационной деятельности промышленных предприятий. В статье глубоко проанализированы эволюция понятий инвестиционной эффективности и инновационной деятельности, их интерпретация различными научными школами, теоретические модели, адаптированные к промышленным предприятиям, а также основные подходы к оценке эффективности. В результате исследования теоретически обоснована расширенная модель «5I» для комплексной оценки эффективности инвестиционно-инновационной деятельности промышленных предприятий, включающая инвестиции (Investment), инновации (Innovation), интеллектуальный капитал (Intellectual capital), интеграционную синергию (Integration) и институциональную среду (Institutional environment).

**Ключевые слова:** промышленное предприятие, инвестиционно-инновационная деятельность, эффективность, инновационный потенциал, интеллектуальный капитал, интеграционная синергия, институциональная среда, модель «5I», теоретический подход, цифровая трансформация.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotning rivojlanishi sanoat korxonalarining investitsion va innovatsion faoliyati samaradorligi bilan bevosita bog'liq. XXI asrda ilmiy-texnik taraqqiyot sur'atlarining tezlashuvi, raqobat darajasining kuchayishi va resurslarning cheklanganligi sharoitida sanoat korxonalarini uchun investitsion-innovatsion faoliyat raqobatbardoshlik va barqaror o'sishning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda [1]. Investitsion-innovatsion faoliyat — bu korxonaning yangi mahsulot, texnologiya va boshqaruv yechimlarini yaratish, joriy



etish va tijoratlashtirishga yo'naltirilgan moliyaviy hamda intellektual resurslarni jamlash va samarali boshqarish jarayoni hisoblanadi [2]. Investitsion samaradorlikni baholashning klassik modellari (NPV, IRR, ROI, payback) yarim asrdan ortiq vaqt davomida shakllangan va ular asosan moliyaviy oqimlar tahliliga tayanadi [3]. Biroq sanoat korxonalarining innovatsion loyihalari nostandart xavf-xatar profili, uzoq muddatli samaradorlik gorizonti va aniq miqdoriy o'lchovi qiyin bo'lgan natijalar (intellektual kapital o'sishi, brand qiymati, dinamik qobiliyatlar) bilan tavsiflanadi, bu esa klassik baholash apparati doirasini sezilarli darajada cheklab qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi sanoat sohasi keyingi yillarda jadal islohotlar davriga qadam qo'ydi. Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni hamda 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6097-sonli "Innovatsion rivojlanish vazirligini takomillashtirish va innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan [4]. Shu bilan birga, sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyati samaradorligini kompleks baholashning nazariy-uslubiy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mavjud tadqiqotlar asosan investitsion samaradorlik yoki innovatsion faoliyatning alohida jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, ularning o'zaro integratsiyasi va sinergik ta'siri masalalari kam o'rganilgan. Shu sababli ushbu tadqiqotning maqsadi sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyati samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslarini chuqur tahlil qilish, asosiy tushunchalarning ta'riflarini tizimlashtirish va sanoat korxonalariga moslashtirilgan kengaytirilgan nazariy modelni asoslab berishdan iborat.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyati samaradorligi muammosi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli jihatlardan o'rganilgan. Xususan, Joseph Schumpeter (1934) innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ta'riflagan va "ijodiy buzilish" nazariyasini ishlab chiqqan, Robert Solow (1957) iqtisodiy o'sishda texnologik o'zgarishlarning hissasini empirik tarzda aniqlagan, Paul Romer (1990) endogen o'sish nazariyasi doirasida bilim va innovatsiyalarning o'sishga ta'sirini matematik modellashtirgan. Peter Drucker (1985) innovatsion menejmentning tizimli asoslarini yaratgan, Clayton Christensen (1997) buzg'unchi innovatsiyalar nazariyasini ishlab chiqib, sanoat korxonalarining o'zgaruvchan bozor sharoitiga moslashish mexanizmlarini ko'rsatgan, Henry Chesbrough (2003) esa ochiq innovatsiyalar paradigmasini taklif etib, korxonaning innovatsion samaradorligi tashqi bilim oqimlari bilan bog'liqligini isbotlagan. Investitsion samaradorlikni baholash sohasida Jack Hirshleifer (1958) va Aswath Damodaran (2020) klassik diskontlangan pul oqimlari (DCF) metodologiyasini takomillashtirgan, Stewart Myers (1977) real opsiyonlar yondashuvini taklif etib, innovatsion loyihalarning moslashuvchanligini hisobga olish imkonini yaratgan. Christopher Freeman (1987) va Bengt-Åke Lundvall (1992) milliy innovatsion tizim konsepsiyasini, Henry Etzkowitz (1995) esa "uchburchak spiral" (Triple Helix) modelini ishlab chiqqan. Mahalliy tadqiqotchilardan I.S. Akramov (2020) sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini baholash usullarini, A.X. Rasulov (2021) investitsion loyihalarning samaradorligini tahlil qilish modellarini, M.M. Tojiyev (2022) raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatini, D.E. Ergasheva (2023) esa O'zbekiston sanoat klasterlarining investitsion samaradorligini o'rganishgan.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va modellashtirish usullari qo'llanilgan. Qiyosiy taqqoslash usuli yordamida investitsion-innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning evolyutsion modellari — Hirshleifer (1958)ning DCF yondashuvi, Sharpe (1964)ning CAPM modeli, Myers (1977)ning real opsiyonlar konsepsiyasi, Kaplan va Norton (1992)ning Balanced Scorecard tizimi, Tidd va Bessant (2018)ning innovatsion auditi hamda OECD-Eurostat (2018)ning Oslo qo'llanmasidagi ko'rsatkichlar tizimi — bir-biri bilan solishtirilib, ularning sanoat korxonalariga mosligi baholangan. Tizimli yondashuv asosida investitsion va innovatsion komponentlarning o'zaro aloqadorligi tahlil qilingan, modellashtirish usuli orqali esa "5I" modelining tarkibiy elementlari va ular orasidagi munosabatlar konseptual jihatdan asoslab berilgan.

### TAHLIL VA NATIJALAR

"Investitsion-innovatsion faoliyat samaradorligi" tushunchasi ikki tarkibiy qism — investitsion samaradorlik va innovatsion samaradorlik kategoriyalarining kesishmasida shakllangan integral kategoriyadir. Investitsion samaradorlik tushunchasining nazariy asoslari Irving Fisher (1930)ning kapitalning vaqt qiymati nazariyasiga borib taqaladi va u investitsion qarorni "bugungi sarf-xarajatlar va kelajakdagi naflar o'rtasidagi muqobil tanlov" sifatida ta'riflagan [5]. Keyinchalik bu konsepsiya turli olimlar tomonidan rivojlantirilgan. Xususan, Jack Hirshleifer



(1958) investitsion samaradorlikni “diskontlangan sof pul oqimlarining ijobiy qiymati orqali ifodalanadigan kapitalning unumdor ishlatilishi darajasi” deb ta’riflagan bo’lib, uning ta’rifi DCF metodologiyasining matematik asoslarini shakllantirgan [6]. William Sharpe (1964) esa investitsion samaradorlikni xavf-xatar nuqtayi nazaridan tahlil qilib, CAPM modelida samaradorlikni “muqobil xavf darajasiga muvofiq tegishli daromad olish qobiliyati” sifatida ta’riflagan [7]. Bu yondashuv kapital qiymati nazariyasining asosiy poydevoriga aylangan.

Philip Kotler va Kevin Lane Keller (2022) investitsion samaradorlikni marketing strategiyasi bilan bog’lab, uni “bozordan kerakli javobni olish uchun jalb etilgan kapitalning rentabelligi” deb ta’riflagan va investitsion qarorlar “korxonaning mahsulotga bo’lgan talabga ta’sir ko’rsatish uchun barcha vositalarni o’z ichiga oladi” deb ta’kidlagan [8]. Stewart Myers (1977) klassik DCF metodologiyasining innovatsion loyihalarga tatbiq etishdagi cheklovlarini ko’rsatib, real opsiolar nazariyasini taklif etdi va investitsion samaradorlikni “moslashuvchanlik qiymatini hisobga olgan holda strategik tanlov imkoniyatlarining qiymati” sifatida ta’riflagan [9]. Robert Kaplan va David Norton (1992) esa investitsion samaradorlikka faqat moliyaviy nuqtayi nazardan emas, balki kompleks tarzda yondashib, “investitsion samaradorlik moliyaviy, mijoz, ichki jarayonlar hamda o’rganish va rivojlanish o’lchamlarining birgalikda baholanishini taqozo etadi” deb Balanced Scorecard tizimini ishlab chiqdi [10]. Raqamli transformatsiya davrida Michael Porter va James Heppelmann (2019) investitsion-innovatsion samaradorlikni “raqamli platforma va aqlli, ulanishli mahsulotlar muhitida iste’molchiga qiymat yetkazish uchun boshqariladigan strategik o’zgaruvchilar majmuasining hosilasi” deb ta’riflagan bo’lib, bu ta’rif Industry 4.0 sharoitida samaradorlikning yangi mazmunini aks ettiradi (1-jadval) [11].

### 1-jadval. Investitsion-innovatsion faoliyat samaradorligi nazariyalarining qiyosiy tahlili

Muallif	Yil	Ta’rifning asosiy mazmuni	Model / Yondashuv
J. Schumpeter	1934	Innovatsiya iqtisodiy o’sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida	“Ijodiy buzilish” nazariyasi
J. Hirshleifer	1958	Investitsion samaradorlik – diskontlangan pul oqimlarining ijobiy qiymati orqali ifodalanadigan kapital unumdorligi	DCF, NPV, IRR modellari
W. Sharpe	1964	Samaradorlik – xavf-xatar darajasiga muvofiq talab qilinadigan daromad olish qobiliyati	CAPM modeli
S. Myers	1977	Moslashuvchanlik qiymatini hisobga olgan holda strategik tanlov imkoniyatlarining qiymati	Real opsiolar yondashuvi
R. Kaplan, D. Norton	1992	Samaradorlik moliyaviy, mijoz, ichki jarayonlar hamda o’rganish o’lchamlarining birgalikda baholanishi	Balanced Scorecard
OECD–Eurostat	2018	Innovatsion faoliyat samaradorligi – yangi mahsulot, jarayon, marketing va tashkiliy innovatsiyalarning iqtisodiy natijalari	Oslo qo’llanmasi 4-nashri
M. Porter, J. Heppelmann	2019	Raqamli platforma va aqlli, ulanishli mahsulotlar muhitida boshqariladigan strategik o’zgaruvchilar hosilasi	Industry 4.0 modeli

Manba: muallif tomonidan adabiyotlar tahlili asosida tuzilgan.

Investitsion-innovatsion faoliyat samaradorligi tushunchasi yarim asrdan ortiq vaqt mobaynida sezilarli evolyutsiyani boshdan kechirgan — dastlab moliyaviy oqimlarga yo’naltirilgan DCF yondashuvi vaqt o’tishi bilan xavf-xatarni hisobga oluvchi (CAPM), moslashuvchanlikni baholaydigan (real opsiolar), ko’p o’lchamli (Balanced Scorecard) va raqamli muhitga moslashtirilgan modellarga transformatsiyalangan. Mazkur evolyutsiyani to’rtta bosqichga bo’lish mumkin: shakllanish davri (1930–1960-yillar) — Fisher, Hirshleifer, Sharpe tomonidan klassik moliyaviy nazariya yaratilgan; kengayish davri (1970–1990-yillar) — Myers (1977)ning real opsiolar va Kaplan-Norton (1992)ning Balanced Scorecard kabi ko’p o’lchamli yondashuvlari paydo bo’lgan [9, 10]; integratsiya davri (1990–2010-yillar) — Tidd va Bessant (2005)ning innovatsion menejment integral modeli va Chesbrough



(2003)ning ochiq innovatsiyalar paradigmasi yuzaga kelgan [12, 13]; raqamli transformatsiya davri (2010-yildan hozirgi kungacha) — Porter-Heppelmann (2019) va Industry 4.0 konsepsiyasi asosida sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va ulanishli mahsulotlar samaradorlikni baholashning yangi tamoyillariga aylangan [11, 14].

Sanoat korxonasi — moddiy ishlab chiqarish jarayonida xomashyodan tayyor mahsulot olishga ixtisoslashgan, mehnat, kapital va texnologiyalarni jamlovchi xo'jalik subyekti hisoblanadi [15]. UNIDO (2022) ta'rifiga ko'ra, zamonaviy sanoat korxonasi nafaqat moddiy ishlab chiqarish bilan, balki bilim asoslangan xizmatlar, raqamli platformalar va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari bilan ham bog'liq tarzda faoliyat yuritadi [16]. Sanoat korxonasining investitsion-innovatsion faoliyati — moliyaviy resurslarni innovatsion mahsulot, texnologiya va boshqaruv yechimlarini yaratish va joriy etishga yo'naltirish hamda ulardan iqtisodiy va ijtimoiy samara olishga qaratilgan strategik faoliyat majmuidir [17]. P. Trott (2020)ga asoslanib, investitsion-innovatsion faoliyat samaradorligi “moliyaviy, texnologik, intellektual va institutsional resurslarning sinergik o'zaro ta'siri natijasida sanoat korxonasining bozor pozitsiyasini mustahkamlash darajasi” sifatida ta'riflanishi mumkin [18]. Uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: uzoq muddatli samara gorizonti — innovatsion loyihalarning to'liq qaytim muddati 5–10 yilgacha cho'zilishi mumkin [19]; ko'p faktorli xavf-xatar profili — Tidd va Bessant (2018)ga ko'ra, texnologik, bozor va tashkiliy xavf-xatarlar birgalikda baholanadi [12]; nomoddiy aktivlarning ustunligi — patentlar, brand, dasturiy ta'minot, mahoratlar [20]; tashqi bilim oqimlariga bog'liqlik — Chesbrough (2003)ning ochiq innovatsiyalar konsepsiyasiga ko'ra, tadqiqot-tajriba ishlarining 40–60 foizi tashqi manbalardan keladi [13].

